



# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

1 / 2022



## TAHRIR HAY'ATI:

### **N. SALAYEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir

### **I. ERGASHEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

### **U. MUXAMEDOV**

Toshkent shahar adliya boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari – Toshkent shahar yuridik texnikumi direktori, yuridik fanlar doktori, professor

### **S. GULYAMOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro xususiy huquq" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **O. OKYULOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik huquqi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **M. AXMEDSHAYEVA**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Davlat va huquq nazariyasi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **U. TUXTASHEVA**

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

### **SH. SAYDULLAYEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ommaviy huquq" fakulteti dekani, yuridik fanlar nomzodi, professor

### **X. XAYITOV**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi "Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

### **SH. XO'JAYEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Intellektual mulk" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

### **D. XABIBULLAYEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

### **SH. ISMOILOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Mehnat huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

### **G. TULAGANOVA**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat-protsessual huquqi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **N. RAXMONKULOVA**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti "Xalqaro xususiy huquq va fuqarolik huquqi fanlari" kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

### **J. NEMATOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ma'muriy va moliya huquqi" kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

### **G. UZAKOVA**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ekologiya huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

### **A. MUXAMEDJANOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro huquq va inson huquqlari" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **R. KUCHKAROV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Umumta'lim fanlar va madaniyat" kafedrasida dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

### **SH. XAYDAROV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish" kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

### **SH. ASADOV**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi "Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari" kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

### **D. XUDOYNAZAROV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi" kafedrasida o'qituvchisi – mas'ul muharrir

#### **MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

"Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali

"Юриспруденция" правовой научно-практический журнал

"Jurisprudence" legal scientific-practical journal

"Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-1938

© Toshkent davlat yuridik universiteti

# MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ  
NAZARIYASI VA TARIXI.  
HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 YUNUSOV HAYDARALI MURATOVICH**  
Saraxsiy – islom uyg'onish davrining  
yirik huquqshunosi

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY  
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.  
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 15 NE'MATOV JO'RABEK NE'MATILLOYEVICH**  
O'zbekistonda ma'muriy odil sudlov  
muammolari va ma'muriy sudlar faoliyati  
samaradorligini oshirish imkoniyatlari

- 30 SUVANOV SARDOR BAXADIROVICH**  
Taraqqiyot strategiyasida belgilangan  
sud-huquq sohasiga oid maqsadlarni amalga  
oshirishning ilmiy-nazariy asoslari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.  
TADBIRKORLIK HUQUQI.  
OILA HUQUQI.  
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 38 YAKUBOVA IRODA BAHRAMOVNA**  
Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni  
"kengaytirilgan jamoaviy boshqaruv" asosida  
amalga oshirish

- 49 SAIDOV MAQSUDBEK NORBOYEVICH**  
Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ustav  
jamg'armasidagi qarzdor ulushini  
majburlashning o'ziga xos xususiyatlari

- 65 XALILOVA ZEBINISO ERKINOVNA**  
Xalqaro investitsiya huquqiy rejimida davlat  
korxonalarining roli

12.00.04 – FUQAROLIK  
PROTSESSUAL HUQUQI.  
XO‘JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.  
HAKAMLIK JARAYONI VA  
MEDIATSIYA

- 75 ESANOVA ZAMIRA NORMUROTOVNA**  
Fuqaroning layoqati (huquq va muomala) bilan bog‘liq ishlar: nazariy tahlil va amaliy natijalar
- 84 HAQBERDIYEV ABDUMUROD  
ABDUSAIDOVICH**  
Hakamlik sudining tuzilishida hakamlik bitimi
- 95 DAVRONOV DONIYORBЕК ABDULLO O‘G‘LI**  
Xorij mamlakatlarida fuqarolik protsessual majburlov choralari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR  
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.  
EKOLOGIK HUQUQ

- 105 MAHKAMOV DURBEK NE‘MATOVICH**  
O‘simlik dunyosiga oid qonunchilikda ekologik va mulkiy munosabatlar tahlili

12.00.07 – SUD HOKIMIYATI.  
PROKUROR NAZORATI.  
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH  
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH.  
ADVOKATURA

- 114 IBRAGIMOV DIYORBЕК SHUHRAT O‘G‘LI**  
Voyaga yetmaganlar sohasida qonuniylikni ta‘minlashda prokuror nazorati va idoraviy nazorat o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni takomillashtirish masalalari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI,  
HUQUQBUZARLIKLARNING  
OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA.  
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 123 ФАЗИЛОВ ФАРХОД МАРАТОВИЧ**  
Вопросы анализа социально-правовых факторов легализации преступных доходов

**134 ISLOMOV BUNĒD OCHILOVICH**

Обстоятельства, смягчающие наказание и исключяющие преступность деяния по уголовному законодательству Французской Республики (сравнительный анализ)

**149 BOYDEDAYEV SADIRDIN  
ABDUSATTOROVICH**

Korrupsiya tushunchasi: tahlil va taklif

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.  
KRIMINALISTIKA,  
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA  
SUD EKSPERTIZASI

**156 БАЗАРОВА ДИЛДОРА БАХАДИРОВНА**

Ограничение права на молчание  
в уголовном судопроизводстве:  
опыт Австралии

**165 UTEPOV DAUREN PAKHATOVICH  
ZHEMPIISOV NAZARBEEK SHARUNOVICH**

Legal basis for collection and attachment of  
digital information as proof in criminal cases in  
Republic of Kazakhstan

**175 URALOV SARBON SARDOROVICH**

Sud muhokamasida isbot qilish predmeti  
sifatida preyditsiyadan foydalanish masalalari

UDC: 347.9(043.3)(575.1)

## XORIY MAMLAKATLARIDA FUQAROLIK PROTSESSUAL MAJBURLOV CHORALARI

**Davronov Doniyorbek Abdullo o'g'li,**

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi”

kafedrasini o'qituvchisi

e-mail: d.davronov@tsul.uz

ORCID: 0000-0003-1786-8095

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual majburlov choralari qo'llash yuzasidan ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi, jumladan, Germaniya, Angliya, Finlandiya, shuningdek, Amerika Qo'shma Shtatlarining fuqarolik sudlarida qo'llaniladigan protsessual majburlov choralari, ularning turlari, xususan, bu majburlov choralarining zarurati, ahamiyati va majburlov choralari qo'llash bilan bog'liq amaliyot yoritilgan. Shuningdek, bu majburlov choralarining jamiyat, sud-huquq tizimidagi o'рни va ahamiyati, majburlov choralari qo'llash asoslari va tartibi, fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayonida majburlov choralari qo'llash bilan bog'liq muammolar, protsessual majburlov choralari borasidagi nazariy va amaliy masalalar, xorij mualliflarining protsessual majburlov choralari yuzasidan ilmiy-nazariy va amaliy qarashlari, majburlov choralari qo'llash muddati masalalari tahlil qilingan. Bundan tashqari, sud jarimasini qo'llash bilan bog'liq masalalar, jarima miqdorini oshirish yoki kamaytirish, boshqa majburlov chorasi bilan almashtirish, qanday holatlar fuqarolik sud ishlarini yuritishda sud tartibini buzish hisoblanishi masalalari, bu holatlar yuz berganda, taraflarni ogohlantirish, sud zalidan chiqarib yuborish va uni qo'llash bilan bog'liq sud jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar va ularning tahlili, vakolatli davlat organlari, ularning protsessual majburlov choralari qo'llash yuzasidan huquq va majburiyatlari, O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual qonunchiligi va uning normalari xorij mamlakatlarining fuqarolik qonunchiligi asosidagi qiyosiy tahlili, fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayonida protsessual majburlov choralari takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** majburlov chorasi, sud jarimasi, sud zalidan chiqarib yuborish, majburiy keltirish, ogohlantirish, ajrim, sud bayonnomasi, sud topshirig'i.

### ГРАЖДАНСКО-ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ МЕРЫ ПРИНУЖДЕНИЯ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ

**Давронов Дониёрбек Абдулло угли,**

преподаватель кафедры «Гражданское процессуальное и  
экономическое процессуальное право»

Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье рассматривается опыт передовых зарубежных стран по применению мер процессуального принуждения в гражданском судопроизводстве, в том числе виды мер процессуального принуждения, применяемых в гражданских судах Германии, Англии, Финляндии, США, а также необходимость, значение и практика применения принудительных мер. Кроме того, изучены роль и значение мер принуждения в обществе, судебной системе, основания и порядок применения мер принуждения, проблемы, связанные с применением мер принуждения в гражданском судопроизводстве, теория мер принуждения и практические

вопросы, проанализированы научно-теоретические и практические взгляды зарубежных авторов на меры процессуального принуждения, мнения, касающиеся применения мер принуждения. Нашли отражение вопросы, связанные с применением судебного штрафа, увеличением или уменьшением размера штрафа, заменой его иной мерой пресечения; возникающие в ходе судебного разбирательства – в каких случаях нарушения признаются нарушениями судебного порядка в гражданском процессе, в каких случаях выносятся предупреждение сторон или удаление из зала судебного заседания; а также права и обязанности компетентных государственных органов по применению мер процессуального принуждения. Проведенный сравнительный анализ норм гражданско-процессуального законодательства Республики Узбекистан, гражданского законодательства зарубежных стран позволил автору разработать предложения и рекомендации по совершенствованию мер процессуального принуждения в гражданском судопроизводстве.

**Ключевые слова:** меры принуждения, судебный штраф, удаление из зала судебного заседания, принуждение, обязательная явка, предупреждение, определение, судебный протокол, постановление суда.

## CIVIL PROCEDURAL COERCIVE MEASURES IN FOREIGN COUNTRIES

**Davronov Doniyorbek Abdullo ugli,**

Lecturer at the Department of Civil Procedural and  
Economic Procedural Law,  
Tashkent State University of Law

**Abstract.** This article discusses the experience of advanced foreign countries in the using of coercive procedural measures in civil proceedings, including the types of procedural coercive measures applied in civil courts of Germany, England, Finland, and the United States, as well as the necessity, importance and practice of coercive measures. Also, the role and importance of coercive measures in society, in the judicial system, the grounds and procedure for the application of coercive measures, the problems associated with the application of coercive measures in civil proceedings, the theory of coercive measures and practical issues, scientific-theoretical and practical views of foreign authors on procedural coercive measures, opinions, issues of application of coercive measures are analyzed. In addition, proposals and recommendations for issues related to the application of a court fine, increasing or decreasing the amount of the fine, replacing it with another coercive measure, what cases are considered violations of a judicial order in civil proceedings, warning the parties in case of such cases, expulsion from the courtroom, problems arising in court proceedings and their analysis, the competent state bodies, their rights and obligations to apply coercive procedural measures, civil procedural legislation of the Republic of Uzbekistan and its norms civil legislation of foreign countries comparative analysis, the improvement of procedural coercive measures in civil proceedings are given in the article.

**Keywords:** coercive measures, court fine, removal from the courtroom, coercion, compulsory attendance, warning, ruling, court protocol, court order.

### Kirish

Sudlar tomonidan sud ish yuritish jara-yonida sud protsessining belgilangan tartib-qoidalarini buzgan shaxslarga nisbatan turli huquqiy ta'sir choralari belgilash orqali sud tartibini saqlash, sud ishlarini o'z vaqtida va sifatli ko'rishni ta'minlash bilan birga sud

ishtirokchilari, qolaversa, boshqa fuqarolar-ning ham sud tizimiga, odil sudlovga ishon-chini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yangi tahrirda qabul qilingan Fuqarolik protsessual kodeksining 14-bobida protses-sual majburlov choralari sifatida Fuqarolik protsessual kodeksida nazarda tutilgan hol-

larda majburiy keltirish, ogohlantirish, sud majlisi zalidan chiqarib yuborish, sud jarimasi belgilanishi, shuningdek, shaxsga nisbatan protsessual majburlov choralari qo'llanilishi uni fuqarolik protsessual kodeksda yoki sud tomonidan belgilangan tegishli majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmasligi kabi tartiblarning belgilanishi sud ishida ishtirok etuvchi shaxslarning protsessual tartiblarga rioya qilishini ta'minlaydi. O'z o'rnida protsessual muddatni tejash bilan birga sud protsessual majburiyat va intizomni mustahkamlaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi amaldagi qonunchiligimizda protsessual majburlov choralari faqat O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan normalar bilan tartibga solinadi. Majburlov choralari qo'llashning zamon talablariga mos, yaxshi tizimi ishlab chiqilmaganligi natijasida amaliyotda sud majlisida ishtirokchilar sud ishida ishtirok etmasligi, sud ishini ko'rishning cho'zilib ketishi, majburlov choralari ishlanmasligi holatlari yuzaga kelmoqda.

### Material va metodlar


Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual majburlov choralari qo'llash yuzasidan ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi, jumladan, Germaniya, Angliya, Finlandiya, shuningdek, Amerika Qo'shma Shtatlarining fuqarolik sudlarida qo'llaniladigan protsessual majburlov choralari, ularning turlari, shuningdek, bu majburlov choralari zarurati, ahamiyati va majburlov choralari qo'llash bilan bog'liq amaliyot va milliy protsessual qonunchilikni o'zaro qiyosiy tahlil qilgan holda, protsessual majburlov choralari tizimini takomillashtirish yuzasidan taklif ishlab chiqildi.

Shuningdek, fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual majburlov choralari qo'llash yuzasidan xorijiy protsessual olimlar tomonidan berilgan fikrlar, takliflar va tushuntirishlar bugungi kunda sud amaliyotida ushbu masala yuzasidan vujudga ke-

layotgan muammolarga yechim topilishiga xizmat qiladi.

### Tadqiqot natijalari

Xorijiy davlatlar tajribasida, jumladan, *Germaniyada* majburlov choralari tizimi samarali tashkil qilingan. Germaniya Fuqarolik protsessual kodeksiga ko'ra, Fuqarolik sud jarayonlarida quyidagi majburlov choralari belgilangan (1-rasm).



1-rasm. Germaniya fuqarolik protsessida majburlov choralari\*

\*[1, 144-b.].

Germaniya Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan majburlov choralari ko'zlangan maqsad, birinchi navbatda, sud tartibiga qat'iy amal qilinishini ta'minlash, shuningdek, sud jarayoni muddati cho'zilib, sud xarajatlari sarflanishiga sabab bo'lgan shaxs shu xarajatlarni to'liq qoplab berishni nazarda tutadi.

Jumladan, Germaniya Fuqarolik protsessual kodeksining 380-moddasiga muvofiq, belgilangan tartibda chaqirilgan guvohning kelmaganligi natijasida kelib chiqadigan xarajatlar ushbu guvohga nisbatan undiriladi, bunda hech qanday ariza berilishi talab qilinmaydi. Shu bilan birga, ushbu guvohga nisbatan majburiy jarima undiriladi va agar shu holat undirib bo'lmaydigan bo'lsa, u majburiy qamoq jazosiga hukm qilinadi.

Guvoh bir necha instansiyalarga kelmagan taqdirda, ma'muriy majburlash vositalari yana bir marta undiriladi yoki buyuriladi. Belgilangan muddat bo'yicha shikoyat ush-

bu buyurtmalar bo‘yicha berilishi mumkin [1, 58-b.]. Mazkur qoida sudning boshqa ishtirokchilariga nisbatan ham qo‘llaniladi. Jumladan, belgilangan tartibda chaqirilgan sud majlisi taraflari, sud jarayoniga ko‘maklashuvchi uchinchi shaxslar – guvoh, ekspert, mutaxassislarining kelmaganligi natijasida kelib chiqadigan xarajatlar ushbu shaxslardan undiriladi. Shu bilan birga, sud jarayoniga kelmagan shaxsga nisbatan majburiy jarima undiriladi va agar shu holat undirib bo‘lmaydigan bo‘lsa, u majburiy qamoq jazosiga hukm qilinishi belgilangan.

Shuningdek, Germaniya tajribasida protsessual majburlov tariqasida sud jarimalarini qo‘llash ham belgilab qo‘yilgan. Agar ekspert sudga kelmasa yoki u o‘z majburiyatiga ega bo‘lsa-da, hisobotni taqdim etishdan bosh tortgan bo‘lsa yoki ekspertda ish yoki boshqa hujjatlar saqlansa, ushbu xatti-harakatlar bilan bog‘liq xarajatlar undiriladi. Shu bilan birga, unga nisbatan majburiy jarima undiriladi [1, 431-b.]. Agar takroran itoatsizlik bo‘lsa, majburiy jarima yana bir marta undirilishi mumkin.

Bundan tashqari, sud tartibini saqlash maqsadida fuqarolik sud ishlarini yuritish jarayonida sud tartibini buzgan shaxslarga nisbatan ham alohida protsessual majburlov choralari qo‘llanilishi belgilangan. Jumladan, sudning ish yuritish yo‘nalishi doirasida chiqarilgan sud buyrug‘i natijasida sud majlisidan chetlatilishi mumkin. Agar sudda tartibni ta‘minlash uchun sud majlisida ishtirok etadigan shaxs sud majlisidan chetlatilgan bo‘lsa, ushbu shaxs tegishli iltimosnoma berilganidan keyin sud majlisiga qo‘shilishi mumkin [2].

Agarda sud jarimasi tayinlangan shaxsning ma‘muriy jarima to‘lash imkoniyati bo‘lmasa, majburan ishlab chiqarishga buyurilishi mumkin. Bu majburlov choralarining samarali ishlashini ta‘minlaydi.

Sir emaski, Yevropa mamlakatlarida sud tizimi, sud ishlarini yuritish va sud tartibiga qat‘iy amal qilinishini ta‘minlash yaxshi

yo‘lga qo‘yilgan. Ahamiyatli jihati shundaki, qaysi huquq tizimida ekanligidan, ya‘ni anglo-sakson yoki roman-german huquq tizimida ekanligidan qat‘i nazar, barcha sud ishtirokchilari sud tartibiga qat‘iy amal qiladi.

Shu o‘rinda anglo-sakson huquq tizimida majburlov choralari tizimini tahlil qilishimiz maqsadga muvofiq. Jumladan, *Angliya* tajribasida majburlov choralari qo‘llash yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Angliyada 1981-yilda “Sudga hurmatsizlik akti” (Contempt of Court Act) qabul qilingan. Ushbu aktda sudga hurmatsizlik uchun javobgarlik belgilangan. Agarda kimdir adolatli sud jarayonini kechiktirish yoki to‘xtatish va sud natijalariga ta‘sir qilishga harakat qilsa, u tegishli tartibda javobgarlikka tortiladi. Garchi bu akt qabul qilinganiga ancha vaqt bo‘lgan bo‘lsa-da, bir necha o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan. Oxirgi marotaba 2012 va 2020-yil 1-oktabrda o‘zgartirish kiritildi [3].

Britaniyalik mashhur huquqshunos Fiona Simpsonning fikriga ko‘ra, sudga fuqaroviy hurmatsizlik – bu jinoyat emas, balki sud qarorlari bajarilishini ta‘minlash uchun sud tomonidan jazolanadigan xatti-harakatlardir. Sud buyrug‘iga qasddan bo‘ysunmaslik yoki sud muhokamasi jarayonida olingan majburiyatni buzish fuqarolik hurmatini bildiruvchi xatti-harakatlarning keng tarqalgan namunasidir [3]. Agar hurmatsizlik to‘g‘risidagi da‘vo asosli, shubhalarsiz, isbotlash mumkin bo‘lsa, sud ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish, moliyaviy jarima yoki mol-mulkni musodara qilish to‘g‘risida qaror chiqarish orqali fuqaroviy hurmatsizlikni jazolash huquqiga ega.

2020-yil 1-oktabrdan boshlab Fuqarolik protsessual qoidalarining yangi, ancha ixchamlashtirilgan, majburlov choralarini qo‘llash bo‘yicha ariza berish va uni qo‘llash bo‘yicha amaliyot va tartiblari belgilangan yangi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Avvalgi fuqarolik protsessual qoidalariga ko‘ra, sudga hurmatsizlik va unga nisbatan majburlov choralarini qo‘llash (2012-yilda

kuchga kirgan qonunga ko‘ra) murakkab, takrorlanuvchi va yomon ishlab chiqilgan, sud amaliyotida muammolar keltirib chiqardi. Yangi o‘zgartirish va qo‘shimchalarni qayta ishlab chiqishda protsessual adolatsizliklar aniqlangan holatlarni kamaytirish maqsadida, ularni ishlatish osonroq bo‘lishini ta‘minlash uchun sudga hurmatsizlik (bo‘ysunmaslik) bilan bog‘liq qoidalarni tartibga solish nazarda tutilgan.

Ushbu aktga ko‘ra, “qat‘iy javobgarlik qoidasi” (the strict liability rule) belgilangan va u qonun ustuvorligini anglatadi. Sud jarayonida niyatidan qat‘i nazar, muayyan sud protsessida odil sudlovning olib borilishi aralashish yoki to‘sqinlik qilish istagi yoki shunday xatti-harakatlar sudga hurmatsizlik sifatida qaralishi belgilangan [4].

Angliya tajribasida quyidagi holatlarga nisbatan sudga hurmatsizlik sifatida qaraladi:

- sud qaroriga bo‘ysunmaslik yoki ularni e‘tiborsiz qoldirish;
- fotosuratlar olish yoki sudga baqirish (sud jarayonini buzish);
- guvoh sifatida chaqirilgan bo‘lsangiz, sudning savollariga javob berishdan bosh tortish;
- sud ishi to‘g‘risida, masalan, ijtimoiy tarmoqlarda yoki Internetdagi yangiliklarda ommaviy ravishda izoh berish.

“Sudga hurmatsizlik akti”ning 17-bandi-da sudga hurmatsizlik qilganlik va sud jarayonini buzganlik uchun jarima qo‘llanilishi belgilangan. Belgilangan jarimani to‘lmaslik qo‘shimcha jarima solinishi yoki muayyan huquqlardan mahrum qilishga olib keladi. Shuningdek, huquqbuzarga nisbatan 2 yilgacha qamoq tayinlanishi, jarima solinishi yoki ikkala javobgarlik ham qo‘llanilishi mumkin [5]. Shotlandiya sud ishlari yuritish jarayonida sudga hurmatsizlik qilganlik uchun ozodlikdan mahrum qilish, ikki yillik qamoq jazosi yoki jarimaga tortilish belgilanishi mumkin.

Xorijiy mamlakatlar tajribasida Skandinaviya davlatlarida majburlov choralari tizimini


alohida ta‘kidlab o‘tish lozim. *Finlandiyada* sud jarayonini tashkil etish namunaviy tarzda tashkil etilgan va protsessual tartibni buzish holatlari kam uchraydigan holat hisoblanadi. Bu sud tizimida protsessual majburlov choralari tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilganidan dalolat beradi. Ushbu davlatda sudga hurmatsizlik deganda, sudning vakolatiga zid bo‘lgan, sudga hurmatsizlik ko‘rsatadigan yoki sudning o‘z vazifasini bajarish qobiliyatiga to‘sqinlik qiladigan harakatlar tushuniladi [6].

Boshqa davlatlardan farqi ravishda, bu davlat tajribasida sudga hurmatsizlik, sud tartibini buzish ikki xil shaklda javobgarlikka sabab bo‘lishi mumkin. Ya‘ni sud tartibini buzish, sudga hurmatsizlik oqibatlari huquqbuzarlik yoki jinoyat sifatida qaralishi va tegishli tartibda javobgarlikka sabab bo‘lishi mumkin.


Finlandiya fuqarolik protsessual qonunchiligiga ko‘ra, odatda, sud tartibini buzish yoki “sudga hurmatsizlik” iborasi quyidagi holatlarga nisbatan ham ishlatiladi. Masalan [7]:

- taraflardan biri yoki har ikkisi sud zalida jiddiy tartibsizlik keltirib chiqarishi;
- sudyaga baqirish;
- yoki hay‘at oldida guvohlik berishdan bosh tortish kabi xatti-harakatlar ko‘pincha sudga nisbatan hurmatsizlik jinoiy javobgarlikka sabab bo‘luvchi oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Finlandiya fuqarolik protsessual qonunlariga muvofiq, ba‘zi holatlarda sudga hurmatsizlik jarima bilan cheklanadi va huquqbuzarlik sifatida e‘tirof etiladi. Jumladan, taraflar tomonidan sudga hurmatsizlik ko‘pincha kimdir sud qaroriga rioya qilmasa, bo‘ysunmasa, bu esa faqat ikkinchi tarafning huquqlariga ta‘sir etish bilan cheklansa, sud tomonidan sud tartibini buzgan shaxsga nisbatan jarima qo‘llaniladi. Finlandiya tajribasida majburlov choralari uch guruhga bo‘linadi: shaxsga nisbatan, mulkka qarshi va odil sud tomonidan tayinlangan majburlov choralari. Bu majburlov choralari o‘ziga xos xususiyatlari mavjud (2-, 3-rasmlar).



**2-rasm. Shaxsga qarshi qaratilgan majburlov choralarini**



**3-rasm. Mol-mulkka qarshi qaratilgan majburlov choralarini**

### *Odil sud tomonidan tayinlangan majburlov choralarini*

Sud tomonidan hibsga olish bo'yicha tergov organlari tomonidan hibsga olingan shaxsni ozod qilish taklifi, majburiy chorani bekor qilish talabi, majburiy chorani o'zgartirish to'g'risidagi talab va dalillarni yig'ish, guvoh ko'rsatmalari berishni talab qilish va ehtiyot chorasini qo'llashni talab qilish (xavfsizlik uchun o'tkazishni taqiqlash va musodara qilish) yuzasidan sud tomondan majburlov choralarini qo'llash mumkin.

Quyidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi:

- 1) majburlov choralarini to'g'risida akt (Coercive measure act);
- 2) politsiya akti (Police act);
- 3) ba'zi xorijiy fuqarolar uchun majburlov choralarini (Aliance act).

Finlandiyada kreditorlar yoki fuqarolik yoki tijorat protsessidagi boshqa da'vogarlar o'z foydalariga ehtiyot choralarini ko'rishlari mumkin. Ehtiyot choralarining maqsadi keyinchalik ishning mohiyati bo'yicha chiqarilgan har qanday qarorning bajarilishini ta'minlashdir. Ehtiyot choralarini tayinlashga oid qoidalar Sud protsessual kodeksining 7-bobida [7] va ijro kodeksining 8-bobida sud qarorlarini ijro etish to'g'risidagi qoidalarda keltirilgan.

Finlandiya qonunchiligiga muvofiq, majburlov choralarini sudning qarori asosida va sudning qarorisiz ham qo'llanilishi mumkin. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar Politsiya akti (Police act)ga asosan, zarur deb topsalar, sudning qarorisiz ham majburlov choralarini qo'llashlari mumkin.

Sud tomonidan qo'llaniladigan ehtiyot choralarini aniq belgilab qo'yilgan. Ular quyidagilar:

- muayyan huquqdan mahrum qilish (sudlanuvchiga jazo tahdidi ostida biror narsa qilish yoki biror narsaga kirishni taqiqlash);
- majburiyat yuklash (sudlanuvchiga jazo tahdidi ostida biror narsa qilishni buyurish);
- vakolat berish (ariza beruvchiga biror narsa qilish yoki biror narsani bajarishga vakolat berish);
- sudlanuvchining mol-mulkini agentning tasarrufi yoki saqlashiga berilishini buyurish;
- ariza beruvchining huquqlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan boshqa ehtiyot choralarini buyurish.

Finlandiya tajribasida ham sud xarajatlarning ortiqcha sarflanishi, isrof qilinishiga kim sababchi bo'lgan bo'lsa, shu shaxs sudning boshqa ishtirokchilari tomonidan qilingan xarajatlarni ham qoplash nazarda tutiladi. Jumladan, agar guvoh biron-bir tomonni uzrsiz yoki boshqa nomuvofiqlik yo'qligi sababli sud xarajatlariga olib kelgan bo'lsa, sud guvohdan, agar bunday da'vo qilinmasa ham, oqilona deb hisoblangan xarajatlar-

ni qoplashni talab qilishi mumkin. Agar sud taraflardan qarama-qarshi tomonga tovon puli to'lashni buyurgan bo'lsa va aytilgan tomon buni amalga oshirgan bo'lsa, ushbu shaxs guvohdan guvohga tovon puli to'lashga buyurilgan narsani olishga haqlidir [8]. Bundan tashqari, guvoh, zarur bo'lgan sayohat va texnik xarajatlar, shuningdek, ish haqini yo'qotish uchun oqilona tovon puli olishga haqlidir. Sud o'z tashabbusi bilan fuqarolik ishi bo'yicha guvohni chaqirganda, tomonlar tovon puli uchun birgalikda va alohida javobgar bo'ladilar. Davlat mablag'laridan guvohga to'lanadigan tovon puli bo'yicha alohida qoidalar qo'llaniladi. Xususiy taraf tomonidan chaqirilgan guvoh uning sayohati va texnik xarajatlari uchun oldindan kompensatsiya olish huquqiga ega. Avansni kompensatsiya uchun javobgar bo'lgan shaxs to'laydi. Guvoh chaqirilganda, unga bir vaqtning o'zida avans huquqi to'g'risida xabar beriladi. Sud yetarli avans nima ekanligini aniqlaydi.

Albatta, shu imkoniyatlar mutanosib ravishda guvohga majburiyat yuklaydi. Agar guvoh kelmasa va uzrli sababi bo'lmasa yoki sud jarayonidan ruxsatsiz chiqib ketsa, guvohga nisbatan majburiy keltirish protsessual majburlov chorasi qo'llanilishi yoki jarima solinishi [9] mumkin.

Agar guvoh asossiz ko'rsatma berishdan bosh tortsa, sud uni jarima tahdidi ostida o'z majburiyatini bajarishni buyuradi. Agar guvoh sud qarorini bajarishni rad etsa, sud tahdid qilingan jarimani to'lash to'g'risida qaror qabul qiladi. Agar guvoh sud buyrug'ini bajarishni rad etishda davom etsa, sud ishning mohiyati, guvohning ko'rsatma berishning ishni hal qilishdagi ahamiyati, guvohning shaxsiy ahvoli va boshqa holatlarni hisobga olib, guvoh majburiyatini bajarishga majbur qilish uchun uni majburiy qamoq jazosiga hukm qilishi mumkin [8]. Guvohni majburiy qamoqxonada guvohlik berish majburiyatini bajarish uchun zarur bo'lgan muddatdan ko'proq yoki olti oydan oshiqroq muddatga saqlash mumkin emas. Biroq majburiy qa-

moq ishlari sudda ko'rib chiqilayotgan vaqtdan ko'proq davom etmaydi.

Shu bilan birga, sud taraflarga ham sud majlisida ishtirok etishni qat'iy belgilab qo'yishi mumkin. Agar sud majlisida ikkala tomon ham ishtirok etmasa, ish to'xtatiladi. Agar bir taraf sud majlisida ishtirok etmasa va uzrli sabablarini sudga taqdim etmasa, u tarafga nisbatan majburiy keltirish chorasi qo'llanilishi mumkin.

Albatta, hozirgi kunda huquq sohasida dunyo davlatlari AQSh tajribasidan foydalanigan holda, o'z qonunchiligiga implementatsiya qilish orqali qonunchiligini rivojlantirmoqda. AQSh tajribasida sud ishlarini yuritish jarayonida taraflar o'rtasida hal qiluv qarorini qabul qilishda farmoyish va farmoyishlarning bajarilishini ta'minlash va faktlarni aniqlash jarayonida ko'rsatma berishdan bo'yin tovlagan guvohlardan ma'lumot olish uchun majburiy qamoq protsessual majburlov chorasi qo'llanilishi mumkin. Majburiy qamoqqa olish chorasiga bugungi kunda umumiy yurisdiksiya sudiga o'zining "sudga hurmatsizlik" orqali taqdim etiladigan sanksiyalardan biri sifatida qaraladi.

Ma'lumki, *Amerika Qo'shma Shtatlari* sud ishlarini yuritish jarayonida protsessual majburlov choralari/sanksiyalari, asosan, sudga hurmatsizlik qilgani uchun qo'llaniladi. Sud ishiga xalaqit qilish "sudga nisbatan hurmatsizlik" (contempt of court) deb ataladi. Bu, asosan, sud buyrug'iga bo'ysunmaslikda namoyon bo'ladi. Shuningdek, sud ishlarini yuritishda odil sudlovni tartibli amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan yoki sud ishlarini o'z vaqtida va barcha protsessual qoidalariga amal qilgan holda, sud ishini yuritishga to'sqinlik qiladigan xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi. Federal Fuqarolik Protsessual Qoidalarining (FRCP) 70-qoidasiga ko'ra, sudning hukmiga muvofiq, muayyan harakatlarni bajarish yoki bajarmagan tarafdari sudga hurmatsizlikda ayblash mumkin [10]. Sudga hurmatsizlik masalasining fuqarolik protsessual qonunchilikka kiriti-

lishidan maqsad sudlarning qadr-qimmati va odil sudlovni uzluksiz va to‘sqinliksiz amalga oshirishni ta‘minlashdan iborat.

Ushbu davlat qonunchiligiga ko‘ra, sudga hurmatsizlik to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita (ba‘zan “konstruktiv” deb ham ataladi) bo‘lishi mumkin. Bu atamalar o‘rtasidagi farqni aniqlashda sudga nisbatan hurmatsizlik holati yoki harakati sodir etilgan joy muhim hisoblanadi. Kaliforniya sud amaliyotida sudga to‘g‘ridan to‘g‘ri hurmatsizlikka sudning bevosita sud ishini ko‘rish jarayonida qasddan sodir etilgan holat yoki harakatlar deb ta‘rif berilgan. Masalan, chaqiruv qog‘ozi bo‘yicha kelmaslik to‘g‘ridan to‘g‘ri sudga hurmatsizlikdir [10]. FRCPning 37-qoidasiga ko‘ra, sudda ishtirokchilarning sud bergan savollarga javob bermasligi ham sudga hurmatsizlik sifatida qaralishi mumkin. Bunday to‘g‘ridan to‘g‘ri sudga hurmatsizlik sodir etgan shaxs sud tomonidan jarimaga tortilishi mumkin.

Boshqa tomondan, sudga nisbatan konstruktiv hurmatsizlik to‘g‘ridan to‘g‘ri hurmatsizlikka kirmaydigan har qanday hurmatsizlikdir. Masalan, suddan tashqarida sud topshiriqlarini bajarish jarayonida sud ishini o‘z vaqtida hal qilishga to‘sqinlik qilish ham sudga nisbatan bilvosita hurmatsizlikdir. Bilvosita hurmatsizlikda ayblanayotgan shaxsga xabar berilishi va unga tushuntirish imkoni yaratilishi kerak.


Sud tartibini buzish/sudga hurmatsizlik huquqbuzarlik sifatida e‘tirof etilishi yoki jinoyiy oqibatlarini keltirib chiqarishi mumkin. AQShda mavjud yurisdiksiyalar sud tartibini buzishni o‘z tartiblariga ko‘ra, huquqbuzarlik yoki jinoyat sifatida e‘tirof etishi mumkin. Ammo davlat Oliy sudi sud tartibini buzish/sudga hurmatsizlik oqibatini sud jarayonidagi ishning mohiyati va yengillik xususiyatiga bog‘lash lozim deb hisoblaydi. Misol uchun, Pensilvaniyada agar sud buyruq/farmoyishlariga bo‘ysunmaslik sodir bo‘lsa, tartibni buzgan tarafga sud tartibiga bo‘ysundirish uchun sud tomonidan jarima solinishi mum-

kin [11]. Biroq agar sudya shaxsiga yoki bevosita sudga nisbatan hurmatsizlik sodir etilsa, uning oqibati jinoyat sifatida baholanishi mumkin.

Nyu-Yorkda protsessual majburlov choralarini/sanksiyalarini qo‘llashdan maqsad sud ishini yuritish jarayonidagi taraflarning huquqlarini himoya qilishdir. Chunki har qanday sud tartibini buzish sud ishini adolatli, halol va o‘z vaqtida ko‘rib chiqishga to‘sqinlik qiladi.

Sud tartibini buzish/hurmatsizlikning oqibatlarini tasniflash juda muhim. Chunki sudga hurmatsizlikning oqibatlari turli toifadagi turli protsessual kafolatlar va jazolarni o‘z ichiga oladi. Misol uchun, Michigan shtatida sud tartibini qo‘pol ravishda buzgan va jinoyiy javobgarlikka mahkum etilgan taraflar jinoyat ishida ayblanuvchi bilan bir xil maqom va huquqlarga ega bo‘ladi. Boshqa tomondan, shaxs aybsizlik prezumpsiyasiga ham ega, ya‘ni sud tartibini buzish sabablari o‘rganilib, sud qarori asosli ekanligi isbotlanishi kerak. Yana boshqa tomondan, shaxsga faqat ogohlantirish va uni eshitish imkoniyati berilishi kerak va dalillarning ustunligini ta‘minlash zarur [11].

Sud tartibini buzgan taraflarga quyidagi sanksiyalar mavjud (4-rasm):



**4-rasm. Sud tartibini buzgan taraflarga nisbatan qo‘llaniladigan sanksiyalar**

Biroq Oliy sudga ko‘ra, sud buyrug‘iga bo‘ysunmaslik uchun jazo shartli hisoblanadi. Jazolangan taraf sud buyrug‘ini bajarib, sud tomonidan tayinlangan protsessual majburlov choralaridan ozod qilinishi mumkin va shuning uchun “qamoqxona kalitlarini o‘z cho‘ntagida ko‘tarib yurgan” deb ta‘riflanadi. Biroq sud tartibini buzgan ishtirokchilarga nisbatan tayinlangan ji-

noiy xususiyat kasb etuvchi jazolar, odatda, shartsiz va aniqdir.

### Xulosalar

Ahamiyatli jihati shundaki, AQShda protsessual majburlov choralari, jumladan, majburiy keltirish protsessual majburlov chorasini qo'llash sudyaning mutlaq vakolatlari sirasiga kiradi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi protsessual kodeksining 144-moddasida "sud muhokamasida ishtirok etishi shart bo'lgan yoki sudga kelishi ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda sud tomonidan shart deb topilgan" holatlarda sud ishtirokchilarni majburiy keltirish to'g'risida ajrim chiqarishi mumkin. Bu sudyaning vakolatlarini qisman cheklashi mumkin.

Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 144-moddasining birinchi bandi "Agar ushbu Kodeksning 313-moddasiga muvofiq, sud muhokamasida ishtirok etishi shart bo'lgan yoki sudga kelishi ushbu Kodeksda nazarda tutil-

gan hollarda sud tomonidan shart deb topilgan" qismi o'rniga "Agar ushbu Kodeksning 313-moddasiga muvofiq, sud muhokamasida ishtirok etishi shart bo'lgan yoki sudga kelishi ushbu Kodeksda nazarda tutilgan hollarda yoki sud tomonidan zarur deb topilgan hollarda" jumlasini kiritishimiz lozim. Chunki ba'zi holatlarda ishning mazmuni boshqa shaxslarning ham sud majlisidagi ishtirokini talab qilishi mumkin. Bu holatda Fuqarolik protsessual kodeksimizda bu shaxslarga nisbatan majburlov choralari nazarda tutilmaganligi sababli majburiy keltirish protsessual majburlov chorasini qo'llab bo'lmaydi. Majburiy keltirish protsessual majburlov chorasini qo'llash sudyaning mutlaq vakolatida bo'lishi lozim.

Xorijiy tajriba asosida milliy qonunchiligimizni takomillashtirish bugungi kunda sud ishlarini yuritish jarayonida vujudga kelayotgan muammolarni kamaytiradi va odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashadi.

## REFERENCES

1. Code of Civil Procedure as promulgated on 5 December 2005. Bundesgesetzblatt, BGBl., Federal Law Gazette, part I, p. 3202; 2006, part I, p. 431; 2007, part I, p. 1781. Last amended by Article 1 of the Act dated 10 October 2013. Federal Law Gazette, part I, p. 3786.
2. Das Bundesministerium der Justiz [The Federal Ministry of Justice]. Available at: [https://www.gesetze-im-internet.de/englisch\\_zpo/englisch\\_zpo.html/](https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_zpo/englisch_zpo.html/).
3. Contempt of court: Making the process simpler and fairer. Available at: <https://www.kingsleynapley.co.uk/insights/blogs/dispute-resolution-law-blog/contempt-of-court-making-the-process-simpler-and-fairer/>.
4. Code of Judicial Procedure, no. 4/1734; amendments up to 732/2015 included.
5. Contempt of Court Act 1981. Available at: <https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1981/49/>.
6. 1995 Police act of Finland. Available at: <https://www.policinglaw.info/country/finland/>.
7. Aliens Act of Finland, no. 301/2004, amendments up to 973/2007 included.
8. Code of Judicial Procedure, no. 4/1734; amendments up to 732/2015 included. Ministry of Justice, Finland. Available at: [https://www.finlex.fi/fi/laki/kaannokset/1734/en17340004\\_20150732.pdf/](https://www.finlex.fi/fi/laki/kaannokset/1734/en17340004_20150732.pdf/).
9. Coercive Measures Act. 30 April 1987/450. Available at: [https://www.imolin.org/doc/amlid/Finland/Finland\\_Coercive\\_Measures\\_Act\\_1987.pdf/](https://www.imolin.org/doc/amlid/Finland/Finland_Coercive_Measures_Act_1987.pdf/)
10. The Coercive Function of Civil Contempt. *The University of Chicago Law Review*. DOI: 10.2307/1598669/.

11. Code of Judicial Procedure, no. 4/1734; amendments up to 732/2015 included.
12. Davronov D.A. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual majburlov choralarini tadqiq etish muammolari [Problems of studying procedural coercive measures in civil proceedings]. Tashkent, TSUL, 2021, p. 98.
13. Habibullayev D.Yu. Fuqarolik protsessual huquqi [Civil procedural law]. Ed. M.M. Mamasiddiqov, D.Yu. Habibullayev. Tashkent, Lesson press publishing house, 2020, pp. 607, 258.
14. Greig E. Contempt of court: the prospect of prison, even before proceedings are issued, 2019, November 28. Available at: <https://www.kingsleynapley.co.uk/insights/blogs/dispute-resolution-law-blog/contempt-of-court-the-prospect-of-prison-even-before-proceedings-are-issued/>.
15. Davronov D. Coercive measures in the civil proceedings: its importance and types. *Norwegian Journal of Development of the International Science*, 2021, no. 76-2. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/coercive-measures-in-the-civil-proceedings-its-importance-and-types/> (accessed 08.02.2022).
16. Contempt of Court. Legal Information Institute. Available at: [https://www.law.cornell.edu/wex/contempt\\_of\\_court#/](https://www.law.cornell.edu/wex/contempt_of_court#/).
17. What is a mandatory court appearance? Attorneys On Demand. Available at: <http://www.attorneysondemand.net/mandatory-court-appearance.cfm/>.
18. Coercive Measures Act, 30 April 1987/450. Available at: [https://www.imolin.org/doc/amlid/Finland/Finland\\_Coercive\\_Measures\\_Act\\_1987.pdf/](https://www.imolin.org/doc/amlid/Finland/Finland_Coercive_Measures_Act_1987.pdf/).
19. Civil procedure code of the Russian Federation of 2002, November 14, no. 138-FZ, as amended on 08-12-2020.
20. Civil procedure code of Ukraine with amendments and additions provided by the law of Ukraine issued on 23rd June, 2005.
21. Civil procedural code of the Republic of Kazakhstan. Code of the Republic of Kazakhstan dated October 31, 2015, No. 377-V ZRK.
22. Code of civil procedure of Turkmenistan of August 18, 2015, as amended of the law of Turkmenistan of 20.03.2017.
23. Coercive Measures Act, 30 April 1987/450.